

BODA SHO‘XIDIN AGAR NOLON BO‘LUBMEN AYB EMAS ...

G‘afurov Nodirjon Sayfutdin o‘g‘li

O‘zMU stajyor-o‘qituvchi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13329217>

Annotatsiya. Bu tezida mumtoz adabiyotda may xususiyatlari haqidagi fikrlar, unga bo‘lgan munosabat Navoiygacha bo‘lgan asarlar va Navoiy g‘azali va fardidagi ta‘riflar asosida beriladi.

Kalit so‘zlar: harif, taryok, chog‘ir, soqiy, ichguvchi, may, mezbon, mehmon, bodano‘sh.

БОДА ШОХИДИН ЭТО НЕ Я ВИНА, ЕСЛИ Я БЫЛ ПОЛОНОМ...

Аннотация. В данной диссертации изложены представления о свойствах мая в классической литературе, отношении к нему на основе сочинений до Навои и определений в газели и фарди Навои.

Ключевые слова: хариф, тарёк, чоғир, соки, пьющий, май, хозяин, гость, боданош.

BODA SHOKHIDIN IT'S NOT MY FAULT IF I WAS NOLON...

Abstract. This dissertation outlines ideas about the properties of May in classical literature, attitudes towards it based on writings before Navoi and definitions in the ghazal and fardi of Navoi.

Key words: kharif, tarek, choghir, juices, drinker, may, host, guest, bodanosh.

KIRISH.

Navoiy ijodiga faqat mutasavvuf shoir asarlaridek qarash o‘quvchini bir qadar qiynab qo‘yadi, ayniqsa u diniy-tasavvufiy bilimlardan yiroq bo‘lsa. Muallif o‘z asarlarida xalq orasidan shunday misollar keltiriladiki, bunday misollarni o‘z ma‘nosida qabul qilish ham o‘qirmanning sezimlariga bevosita ta‘sir qilib, avom zavqini beradi. Navoiyning asarlarini o‘qiganda uning, avvalo, shoirligini, ma‘lum lavozimlarda ishlaganini va saroy ahlidan ekanini ham unutmazlik lozim.

Uning hayoti saroyga sadoqatli G‘iyosiddin (Kichkina Bahodir) nomi bilan bog‘langani, barchamizga ma‘lum. Navoiy o‘z siyosiy faoliyatini 1469-yildan boshlagan deb qarash, u o‘sha vaqtda 28 yosh bo‘lgan. Bu esa uning ayni yigitlik chog‘i (shabob ayyomi)ga to‘g‘ri keladi.

Navoiy yashagan davr va hududni inobatga olsak, u yerda turli xalqlar va millatlar yashagani tarixdan ayon bo‘ladi. Bu xalqlarning turmush tarzi va urf-odatlaridan Navoiy, albatta, xabardor bo‘lmasligi mumkin emas. Shuni aytish kerakki, bu xalqlarda – u turkiy xalq bo‘ladimi, forsiy yoki arabiy xalq bo‘ladimi, ular islom diniga e‘tiqod qilsa-da, may ichish odatini to‘liq yo‘qotmagan edi.

Shunday ekan, mayxo‘rlik holatlari uchramagan desak, xato bo‘ladi. Bunday bazmlar saroy ahli orasida ham oddiy xalq orasida ham bo‘lgan. May qadim-qadimdan insonni erkinlik sari olib boruvchi vosita sifatida tasvirlangan, uning sifatleri, ta‘riflari she‘r-u g‘azallar bo‘lgan, uning asosida butun boshli janr – soqiynoma yuzaga kelgan, u ishtirok etgan asarlar mavzu jihatdan rindona mavzuga oid. Bu haqida quyidagi ma‘lumotlarni keltirsak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

“Qobusnoma”¹ asarida Kaykovus o‘g‘liga nasihat qilar ekan, farzandiga ichmaslikni uqtiradi. “Ey farzand, agar sharob ichmasang ikki jahon foydasini topg‘ungdir ... Lekin sen yosh yigitdursen, hariflar(ulfatlar) senga sharob ichirmay qo‘ymas, men buni aniq bilurman” – deydi.

Ammo baribir, otasi taqiqlasa-da uning ichishini bilishini ta’kidlaydi va maslahatlar beradi.

Ayni shu davrga oid manbalardan yana biri tabobat ilmi egasi Ibn Sino o‘zining ruboiylarida mayga “ozi taryok, ko‘pi zahri mor” degan ta’rif beradi. Ruboiy:

May² mastga dushman-u hushyorga yordir,
Ozi taryok, ko‘pi bir zahri mordir.
Ko‘p bo‘lsa zarari oz emas uning,
Oz bo‘lsa unda ko‘p manfaat bordir.

Xalq orasida mayga bo‘lgan munosabat dori(taryok) ichishga bo‘lgan ehtiyojdek bo‘lmog‘i kerak. Ko‘p ichish ziyon, ammo uni ozi ko‘p foyda keltiradi – demoqda ibn Sino.

Xalq orasida odamlar mayni “ba niyati shifo” deb iste’mol qilishadi. Uning mazmuni “shifo niyatida” – degani. Ma’lumki sog‘lom odam dori ichmaydi.

O‘z davrida turkiy tilda munozara yaratgan Yusuf Amiriy ham “Chog‘ir va Bang”³ asarida mayning sifatlarini keltiradi. May tilidan – “Mening majlisimda goh ayoq boshqa qo‘yalar va goh bosh ayoqqa” – deyiladi. Bu munozara temuriylar davrida yaratilganligini hisobga olsak, o‘sha davrda ham bunday illatlar uchrab turganligi ayon bo‘ladi.

Navoiy asarlarining, aksariyatida, may so‘zi ishlatiladi. Albatta, buni ayrimlar diniy-tasavvufiy ma’no bilan bog‘lasa, ayrimlar, o‘z vaqtida, buni to‘g‘ridan to‘g‘ri mayning sifatlari bilan bog‘lagan.

Masalan, Navoiy “Navodir ush-shabob” devonidagi 647- “Ichguvchi”⁴ radifli g‘azalini olaylik.

Sen zuloli vasl ichib, men zaxri hijron ichkuchi,
Og‘u ichkondin ne voqif obi hayvon ichkuchi.

Ul yuzin gulrang etib men ashk xunobin to‘kub,
Kim erur ul bodai gulgunu men qon ichkuchi.

Ichsa gulgun boda olamdur guliston yuzidin,
Bo‘yla yo‘q olam gulistonida imkon ichkuchi.

Davr ayog‘in ichmayin davrong‘a solding rustaxez,
Ko‘rmadi davr ichra sendek ahli davron ichkuchi.

Oshiq o‘lmay sizki dersiz tavba qil, ey ahli zuhd,
Netsun ichmay joni mahjur o‘lsa jonon ichkuchi.

¹ Kaykovus. “Qobusnoma” 11-bob, 51-bet

² <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/abu-ali-ibn-sino-adabiy-merosidan-namunalar.html>

Elektron

manzilda “Man” deb berilgan, may desak mazmunan mos tushadi. Muallif

³ Yusuf Amiriy. “Chog‘ir va Bang” 250-bet.

⁴ Alisher Navoiy. “Xazoyin ul-maoniy” “Navodir ush-shabob” 340-bet.

Boda sho‘xidin agar nolon bo‘lubmen ayb emas
Kim, erur ko‘nglumni olg‘on sho‘xi nodon ichkuchi.

Ey Navoiy, yor mehmon bo‘lsa, may tutqach, sumur,
Mizbon zohid xush ermas, bo‘lsa mehmon ichkuchi.

Albatta, g‘azalning birinchi (matla‘) baytida ishqiy mavzudagi zuloli vasl, zahri hijron, og‘u, obi hayvon birliklarini o‘z ma‘nosida ham tasavvufiy ma‘noda ham talqin qilish mumkin.

E‘tibor berib qarasak, zuloli vasl – visol suvi ichgan bilan zaxri hijron – hijron zaxarini ichgan xuddiki, og‘u – zahar ichgan bilan obi hayvon – tiriklik suvini ichgani kabi teng bo‘lmaydi.

Keyingi baytlarda bodaning inson jismidagi alomatlarini – ichgan odam yuzida qizillik zohir bo‘lishi va bu mastlik holidan darakligi aytiladi. Uning yuzi gulrang – gulgun boda ichganidan, ashk xunobin (qonli ko‘z yoshi) to‘kkanlar esa qon ichgandek. Mayxo‘rning ichgani yuzidan bilinadi va yuzi qizargani – olam guliston(hamma yoq qizil) bo‘lganidek ayon bo‘ladi.

May ichgan kishi mast bo‘lgach davrada to‘polon ko‘taradi va davradagilar uni alqaydi uning so‘zlarini ma‘qullaydi. Bu holga kelgan insonga

5-baytda zuhd ahli hushyorlik bilan oshiqqa tavba qil deyishadi, jononiga yetishmagan oshiq nima ham qilsin!? Keyingi baytda shuncha ta‘na-ma‘lomatga qolgan oshiq endi yig‘lashga tushadi va buni bodaning sho‘xligi deydi va yana bu holga ko‘nglini olgan nodonni sabab qilib ko‘rsatadi.

Ammo so‘nggi baytda keltiriladigan fikrda Navoiy zohid mezbon va uning oldiga kelgan ichkuchi mehmonni qiyos qiladi. Hatto mezbonga mehmon may tutsa – soqiylik qilsa “sumur” deb aytadi. Mehmon ko‘ngli may tusaganda, mezbonning bu holini “xush emas” deydi. Bu bilan mehmon va mezbon o‘rtasidagi xijolatpazlik holatiga yechim qidiradi.

Alisher Navoiy “Favoyid ul-kibar” devoni 52-fardi:

Aql-u hushim qolmadi, ko‘rgach ul oyni bodano‘sh,
Iztirobimdan hamonokim, to‘kildi aql-u hush.

Ayrim hollarda ichkilik ichgan odam ichkilik ichishdan o‘zini to‘xtata olmay qoladi.

Oqibatda aql-u hushidan ayriladi, hatto nima deyayotganini bilmay qoladi. Boshdagi aql oyoqqa tushadi. Bunda lirik qahramon bodano‘shga xitob qilib, ma‘shuqasini ko‘rgach, aql-u hushim qolmadi va bu go‘zallik menga solgan iztirobdan aql-u hushim to‘kildi – deb aytmoqda.

Bu fardda oshiq ichkuvchiga mahbubasining go‘zalligi oqibatida aql-u hushidan ayrilganini aytmoqda.

NATIJARLAR.

Bundan kelib chiqadiki, Navoiy inson ko‘nglini sindirmaslikni nazarda tutmoqda. Ba‘zan odamlar orasida shunday hollar bo‘ladiki xursandchilikni ham, g‘am-qayg‘uni ham ichkilik bilan qarshi oladi. Ular shu bilan o‘zini erkin his qiladi va qalbidagi bor g‘uborlarni chiqaradi.

Ehtimol, inson shu bilan o‘zini biroz yengil his qiladi. Lekin bunda ojizlik, irodasizlik namoyon bo‘ladi.

MUNOZARA BO‘LIMI.

Biz bu bilan ichkilikni va ichguvchilarni oqlamoqchi yoki olqishlash niyatida emasmiz.

Biz ularning qanday inson bo'lganidan so'z yuritmoqchimiz. T.Kortantamer shunday deydi: “Soqiya murojaat ila sarxush etuvchi ichimliklar, ya’ni sharob va may, shuningdek, may bazmlarini sharaflash, undagi tushunchalarni ham dunyoviy, ham irfoniy mazmunda ifoda etish Nizomiydan boshlab soqiynoma deb yuritiladi”(M.Asadov. Soqiynoma: tarix va poetika 49-50-betlar). Mumtoz matn bilan tanishganimizda u o’sha davrdan – zamon va makondan darak beradi. Uni bir tomonlama tahlil va talqin qilish asarni ma’no va badiiyatdan uzoqlashtirishdir.

Shuning uchun asarlarni o‘z ma’nosida ham tushunishga to‘g‘ri keladi.

REFERENCES

1. Kaykovus. “Qobusnoma” 11-bob, 51-bet.
2. Muborak maktublar. Toshkent. Gafur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Yusuf Amiriy. “Chog‘ir va Bang”. 250-bet.
3. Alisher Navoiy. “Xazoyin ul-maoniy” “Navodir ush-shabob” 340-bet.
4. Alisher Navoiy. “Xazoyin ul-maoniy” “Favoid ul-kibar” 396-bet.
5. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/abu-ali-ibn-sino-adabiy-merosidan-namunalar.html>
6. M.Asadov. Soqiynoma: tarix va poetika 49-50-betlar